



ON THE NEW REFORMS IN THE PUBLIC GOVERNANCE SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR MAIN DIRECTIONS

Kandakharov Iftikhor Abdumurot ugli ¹

¹ Master of History of Uzbekistan, Samarkand State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4744724>

ARTICLE INFO

Received: 20th April 2021
Accepted: 25th April 2021
Online: 30th April 2021

KEY WORDS

public administration, the president, Oliy Majlis, Senate.

ABSTRACT

Through this article, we have tried to cover the activities of the governing bodies of our state. We spoke about the reforms in public administration in our country in recent years and their goals and objectives.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDAGI YANGICHA ISLOHATLAR VA ULARNING ASOSIY YO'NALISHLARI XUSUSIDA

Qandaxarov Iftixor Abdumurot o'g'li ¹

¹ Samarqand Davlat Universiteti O'zbekiston tarixi magistranti

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-aprel 2021
Ma'qullandi: 25-aprel 2021
Chop etildi: 30-aprel 2021

KALIT SO'ZLAR

davlat boshqaruvi, Vazirlik, prezident, Oliy Majlis, Senat

ANNOTATSIYA

Biz ushbu maqola orqali dalaletimizning boshqaruv organlarining faoliyatini yoritishga harakat qildik. Davlatimizda so'ngi yillarda olib borilgan davlat hokimiyat organlaridagi islohatlar va ularning maqsadlari va vazifalari haqida fikr bildirdik.

Davlat hokimiyat organlari va milliy davlatchilik tizimida islohatlar amalga oshirish zarurati so'ngi yillarda dolzarb siyosiy masalaga aylandi. Ushbu masalalarni yechish uchun davlatimizda turli xil qaror va farmayishlar chiqarilib ular ijrosi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning o'z nazorati va rahbarligidafa kechayotganligi

masalaning naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Davlat organlari faoliyatini rejalashtirish, samaradorligini oshirish hamon dolzarb masala bo'lib turibdi. Bugun birorta idoraning o'tgan davrdagi faoliyatini xolisona baholash imkonini beradigan aniq mezon yo'q. Masalan, hozirgi kungacha men Iqtisodiyot vazirligi yoki boshqa biron vazirlik faoliyatiga



qaysi mezonlar bo'yicha baho berilishini bilmayman. SHuning uchun vazirlik va idoralar, barcha darajadagi hokimliklar prognoz ko'rsatkichlarni belgilashda o'z faoliyatida kutilayotgan natijalarning aniq miqdor va sifat ko'rsatkichlarini belgilab olishi lozim. Davlat organlari tuzilmasi va vazifalarini qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda. Eng muhimi, bu borada xatoga yo'l qo'ymaslik, chuqur o'ylab qaror qabul qilish uchun Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha komissiyadan albatta ijobiy xulosa olinishi lozim¹. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishda ijro hokimiyati organlarining uyg'un faoliyat olib borishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. SHu munosabat bilan davlat boshqaruvida ochiqlikka asoslangan, samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etish lozim. Davlat boshqaruv organlari va Vazirlar Mahkamasi o'rtasida o'zaro hamkorlikda ish olib borish bo'yicha prinsip va mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Har bir vazirlik o'ziga ishonib topshirilgan sohada davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlashi va yakuniy natija uchun to'liq javobgar bo'lishi shart. Vazirliklar bilan teng maqomda faoliyat olib borayotgan, hukumat va parlament bilan bevosita hamkorlik qilayotgan agentliklar, qo'mita, inspeksiya va markazlarni tegishli vazirliklarga bo'ysundirish talab etiladi. Shuni nazarda tutgan holda, Hukumatning vazifa va tuzilmasini tanqidiy qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish lozim². Bunday o'zgarishlar davlat va xo'jalik ishi sohasida deyarli bir xil

vazifalarni bajarayotgan yuzdan ortiq boshqaruv organlari sonini tubdan qisqartirish imkonini beradi. Biz uchun eng og'ir muammolardan biri – davlatning funktsiya va vakolatlari haddan tashqari markazlashib ketganidir. Ushbu sabablar asnosida O'zbekistonda keng ko'lamlı islohatlar olib borilmoqda. Masalan, hozirgi vaqtda 64 ta litsenziya turi mavjud bo'lsa, shundan 21 tasi Vazirlar Mahkamasi va 40 tasi markaziy idoralar tomonidan beriladi. Bu litsenziyalarning uchtasi viloyat hokimliklari va faqatgina bittasi tuman hokimliklari vakolatiga tegishlidir. Bunday holatni ruxsat berish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish sohasida ham kuzatish mumkin. Ruxsat berishga oid 220 ta hujjatdan faqatgina 11 tasini tuman yoki shaharlarda olish mumkin. Qolgan 209 tasi uchun respublika va viloyat organlariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. O'zingiz ayting, buni to'g'ri deb bo'ladimi? Masalan, SHovot tumanida xususiy bog'cha ochishga litsenziya olish uchun tadbirkor ming kilometr masofani bosib, Toshkentga kelib-ketishga, 3-4 oylab kutishga majbur bo'lmoqda edi. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, kredit va moliya vositalarini ajratish, mahalliy darajada ko'pgina muhim qarorlarni tasdiqlash borasida ham shunday holatlar kuzatilmoqda edi. Mahalliy hokimlik organlari oddiy masalalarni hal etishda ham vakolatga ega bo'lmasa, buni qanday tushunish mumkin? Bularning barchasi mahalliy tuzilmalarga hududlardagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish bo'yicha mustaqil ish olib borishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda³. Davlat boshqaruvini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси Uza.uz 2017 yil

² Шавкат Миромонович Мирзиёев-танкидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг

қундалиқ қондаси бўлиш и керак Т.: О'zbekiston 2017

³ SH.M. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent 2018



haddan tashqari markazlashtirishdan voz kechish zarur. Buning uchun ko'pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o'tkazish kerak. SHuning uchun joylarda – tuman, shahar va viloyat hokimliklarida investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha hokim o'rinbosarlari lavozimi joriy etildi. Shu bilan birga, hududiy boshqaruv organlarining byudjet mablag'larini shakllantirish, qo'shimcha zaxiralarni yaratish bo'yicha soliq, moliya va iqtisodiyot sohalari organlarining mas'uliyatini oshirish yuzasidan qaror qabul qilindi. Byudjet tizimini isloh qilish sohasida mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari yanada kengaytirildi. Endi har bir hudud rahbari berilgan imkoniyatlardan foydalanib, mas'uliyatni to'la o'z zimmasiga olishi, o'z aravasini o'zi tortishi kerak. Yaqin istiqboldagi dolzarb vazifalardan biri – hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga mas'ul bo'lgan rahbarlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha vakolatlarni tuman va shahar hokimlariga to'liq o'tkazishdan iborat. Bundan buyon tibbiyot birlashmasi, xalq ta'limi, iqtisodiyot, moliya bo'limlari, soliq inspeksiyasi va boshqa tuzilmalar rahbarlarini lavozimga tayinlash va ozod etish tuman hokimi tomonidan amalga oshiriladi. Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bo'yicha kadrlarni tanlash, tayinlash va lavozimdan ozod etish bilan bog'liq vakolatlar qayta ko'rib chiqiladi⁴. Ayni paytda mahalliy rahbarlarga bunday keng vakolat va mustaqillik berish bilan birga, yakuniy natija uchun ularning javobgarligini tubdan oshirishimiz zarur. Yana bir muhim vazifa – hokimlarning ijro va vakillik hokimiyati rahbari sifatidagi vakolatlarini alohida-alohida

ajratib qo'yish bilan bog'liq. Keyingi paytda yurtimizda xalq deputatlari Kengashlarining roli, xalq noiblarining vakolatlari tubdan oshirildi. Siyosiy partiyalarning mahalliy hokimiyat idoralarini shakllantirish borasidagi vakolatlari bosqichma-bosqich kengaytirildi, deputatlik nazorati esa mustahkamlandi. Biroq, ochiq tan olishimiz lozim, hokimlarning ham mahalliy Kengashlarga, ham ijro hokimiyatiga rahbarlik qilishi demokratik prinsiplarga mos keladi, deb bo'lmaydi. Hammaga ma'lum, hokimlar hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan mahalliy Kengashlarga hisobotlar taqdim etadi. Kengashlar esa o'z o'rnida tegishli qarorlar qabul qiladi. Endi, aytinglar, hisobotini o'zi rahbarlik qilib kelayotgan mahalliy Kengashga taqdim qilishi va tasdiqlatishi, o'zining faoliyatiga o'zi baho berishi to'g'rimi?⁵ Bu tizim hokimlar va mahalliy Kengashlar vazifalarini samarali bajarishiga salbiy ta'sir etayotganini zamonning o'zi ko'rsatmoqda. Biz kelgusida bu masalabo'yicha qonunga asoslangan to'g'ri echim topamiz. Hokimlarning hududlarni rivojlantirish, mahalliy byudjetni ijro etish, kommunal muammolarni hal qilish kabi dolzarb faoliyati ustidan xalqimiz o'z vakillari orqali tegishli nazoratni amalga oshirishiga imkoniyat yaratib berish bizning eng muhim vazifamiz bo'lib qolishi zarur. Bugungi sharoitda aynan ochiqlik va hisob berish mas'uliyati davlat apparatini samarali shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Yaqin kelajakda barcha davlat xaridlarini amalga oshirish va davlat mulkini sotish uchun Internet tarmog'ida yagona maydon tashkil

⁴SH.M. Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent 2018

⁵ Шавкат Миромонович Мирзиёев-танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий

жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши и керак Т.: О'zbekiston 2017



etish lozim. Bu byudjet xarajatlarini qisqartirish, davlat mulkini samarali boshqarish va katta moliyaviy mablag'larni iqtisod qilish imkonini beradi. Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz.

Hozirgi kunda yurtimizda 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2017 yilda "Nuroniy" jamg'armasi, YOshlar ittifoqi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa er egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish⁶, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo ana shunday muhim sa'y-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o'rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og'ir ayollarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta'minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki etarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig'ilishlar o'tkazish bilan mashg'ul bo'lib qolmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari bugun aytilgan tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib, o'z faoliyatida burilish yasaydi, deb ishonamiz. Ushbu ijtimoiy tuzilmalar bilan amaliy muloqotni yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

bo'yicha maslahat kengashini tuzish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Bu yo'nalishdagi yana bir dolzarb muammoga to'xtalib o'tmoqchiman. Bugungi kunga qadar davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagan. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini xolisona baholashga xalaqit bermoqda. SHundan kelib chiqib, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish zarur. SHu munosabat bilan barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etishni taklif qilaman. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog'laydigan ko'prik vazifasini bajarishi lozim.

Jamiyatimiz hayotida demokratik prinsiplarni mustahkamlashda ommaviy axborot vositalari muhim va ta'sirchan omil hisoblanadi. Bu borada chinakam professional zamonaviy jurnalistikani shakllantirish, xususan, nodavlat ommaviy axborot vositalarini, axborot va tahliliy Internet saytlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratish, buning uchun alohida davlat fondini tuzish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda yurtimizda 1 ming 500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular mulk shakli, yo'nalishi, axborot uzatish vositalariga ko'ra turlichadir. O'z-o'zidan ravshanki, ularning barchasiga yuqori malakali kadrlar kerak.

⁶ Шавкат Миромонович Мирзиёев-танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг

қундалик қондаси бўлиш и керак Т.: О'zbekiston 2017



Afsuski, bunday keng ko‘lamli vazifani talab darajasida hal etadigan tayanch oliy o‘quv yurti mamlakatimizda mavjud emas. SHu munosabat bilan Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiya vositalari universitetini tashkil etish zarur, deb hisoblayman⁷. Ushbu keltirilgan masalalar asnosida davlat

hokimiyat va idoralar faoliyatini tubdan isloh etish ular faoliyatlari imkoniyatlari lebirallashtirish masalalari siyosiy jarayonlarning muhim belgilari va vazifalari bo‘lib qoldi sifatida baholandi.

⁷ Шавкат Миромонович Мирзиёев-танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг

қундалиқ қондаси бўлиш и керак Т.: О‘zbekiston 2017



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Шавкат Миромонович Мирзиёев “танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиш и керак”* Т.: О’zbekiston 2017
2. SH.M. Mirziyoyev *Qonun ustuvorligi va inson manfaatleri ta’minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi* Toshkent 2018
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси Uza.uz 2017 yil

Internet ma’lumotlari

4. www.president.uz
5. Oliy majlis axborotnomasi 2003-yil 11-12 son 178-modda
6. www.lex.uz
7. www.OliyMajlis-gov.uz